

Davlat xizmatlari ko‘rsatishda

huquqbuzarliklar, korrupsiyaviy omillar va xatarlar

Taniqli olim B. V. Voljenkinning ta’kidlashicha, korrupsiya ustavlarni ro‘yxatga olish, faoliyatni litsenziyalash va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishda tarqalgan[1]. V. V. Astanin qonunchilik normalaridan korrupsiya maqsadida foydalanish ko‘pincha ro‘yxatga olish, ruxsat berish, yurisdiksion vakolatlarni amalga oshirishda yuzaga keladi[2] deb hisoblaydi, bu bevosita davlat va munitsipal xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq. N. L. Ashurbagina va O. V. Frik korrupsion qonunbuzarliklarni davlat va munitsipal xizmatlar ko‘rsatishdagi asosiy muammo deb biladi[3].

Yuqoridagi olimlarning fikriga qo‘shilgan holda, davlat xizmatlaridagi korrupsiyaning mazmunini ochib berish uchun ushbu sohadagi huquqbuzarliklarning tabiati va ko‘lamiga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekistonda davlat xizmatlarini rivojlantirishning mahsuli sifatida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks 2018-yil 23-iyuldagi 486-qonun bilan “Davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi qonun hujjatlarini buzish” deb nomlangan 215[5]-modda bilan to‘ldirildi. 2021-yil 21-apreldagi 683-qonun bi-

[1] Волженкин Б. В. Коррупция. СПб.: СПбЮИ, 1998. 42 с.
[2] Астанин В. В. Взаимосвязь коррупционных проявлений и экологических преступлений: проблемы детер минации, латентности и уголовной репрессии. Человек: преступление и наказание. 2009. № 1. С. 126–130.
[3] Аширбагина Н. Л., Фрик О. В. Анализ практики предоставления государственных и муниципальных услуг. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2016. № 4-2. С. 14–21.



lan unga o‘zgartirish kiritildi. Ushbu modda mazmuniga ko‘ra davlat xizmatlari ko‘rsatishdagi qonunchilikning buzilishi deyilganda arz qiluvchidan murojaatni qabul qilishni rad etish, davlat xizmatlari ko‘rsatish chog‘ida murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi va muddatini buzish, arz qiluvchidan qonunchilikda nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilish, davlat xizmatlari ko‘rsatishga vakolatli davlat organining qonuniy talabini (topshirig‘ini) bajarmaslik tushuniladi.

Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2022–2024-yillarda jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida 1 187 977 ta qonun buzilishi aniqlangan bo‘lib, ular yuzasidan vakolatli idoralarga 2293 ta taqdimnoma kiritilib, natijasi bo‘yicha 2446 nafar mansabdor intizomiy javobgarlikka tortilgan. Jumladan, 111 tasi lavozimidan ozod etilgan, 13 418 kishiga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 215^5-moddasi asosida ma’muriy jarima qo‘llangan.


Shundan 2022-yilda 169 841 ta qonun buzilishi aniqlangan bo‘lib, ular yuzasidan vakolatli idoralarga 994 ta taqdimnoma kiritilib, natijasi bo‘yicha 1493 nafar mansabdor intizomiy javobgarlikka tortilgan, ularning 47 tasi lavozimidan ozod etilgan, 2204 kishiga jarima solingan.

2023-yilda 382 753 ta qonun buzilishi aniqlanib, ular yuzasidan vakolatli idoralarga 409 ta taqdimnoma kiritilgan. Natijasi bo‘yicha 352 nafar mansabdor intizomiy javobgarlikka tortilgan, shundan 31 tasi lavozimidan ozod etilgan hamda 5401 nafar shaxsga ma’muriy jarima qo‘llangan.

2024-yilda jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida 635 383 ta qonun buzilishi aniqlandi. Bu 2022-yilga nisbatan qariyb 4 baravar, 2023 yilga nisbatan esa deyarli 2 baravar ko‘p. Bunga adliya organlari tomonidan qonunbuzarliklarni aniqlash ishlarining kuchaytirilgani, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan bir qator axborot dasturlarini integratsiya qilish asosida ulardan unumli foydalanilgani sabab bo‘lgan.

Adliya idoralari 2024-yilda aniqlagan davlat xizmatlari sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklarning 485 948 tasi muddat buzilishi, 84 403 tasi asossiz rad etish, 25 156 tasi ortiqcha hujjat talab qilish, 678 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat xizmati ko‘rsatilishi, 38 tasi qonuniy talabni bajarmaganlik hamda 39 160 tasi boshqa sabablar bilan bog‘liq.

Ma’muriy jarimaga tortilgan shaxslarning soni



2024-yilda aniqlangan qonun buzilishlari yuzasidan vakolatli organlarning 5810 nafar (2179 nafar rahbar, 3631 nafar ijrochi) mansabdorga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llangan. Shuningdek, qonunbuzilishlarni bartaraf etish va takrorlanishining oldini olish maqsadida 894 ta taqdimnoma va 1542 ta ogohnoma kiritilib, 566 nafar mas’ul xodim bilan profilaktik suhbat o‘tkazilgan.


Kiritilgan taqdimnomalar natijasida 601 kishi intizomiy javobgarlikka tortilib, ularning 33 nafari lavozimidan ozod etilgan.

Vakolatli organlar ko‘rsatayotgan davlat xizmatlari adliya idoralari tomonidan elektron tizimlar orqali muntazam monitoring qilinishi natijasida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Kadastr agentligi, “O‘zsuvta’minot” AJ hamda “Hududgazta’minot” AJ va ularning tizimidagi tashkilotlar davlat xizmatlarini ko‘rsatishda eng ko‘p qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygani aniqlangan.

Masalan, Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari “O‘zsuvta’minot” AJning filiallari tomonidan Davlat xizmatlari yagona reyestriga kiritilgan 5 xil xizmatni ko‘rsatish ahvolini joyiga chiqib o‘rganganda filiallar aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda **211 693** ta qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygani aniqlangan. Mazkur holatlar bo‘yicha filiallarning **173** nafar xodimi ma’muriy javobgarlikka tortildi hamda ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan **37** ta taqdimnoma kiritildi. Qo‘llanilgan ta’sir choralari natijasida filiallarning **87** xodimiga intizomiy ta’sir chorasi qo‘llanib, ularning **20** nafari lavozimidan ozod etildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi va uning hududiy boshqarmalari 20 turdagi davlat xizmatini ko‘rsatishi belgilangan bo‘lib, shundan 4 xil xizmat an’anaviy hamda 16 xili elektron tarzda ko‘rsatiladi.

Agentlikda 2024-yilda jami 138 847 ta qonun buzilishiga yo‘l qo‘yilgan. Natijada adliya idoralari tomonidan agentlik va uning hududiy organlarining 256 nafar rahbar va mas’ul xodimi ma’muriy javobgarlikka tortilgan, ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan 95 ta taqdimnoma kiritilgan.



Adliya vazirligi 2024-yilda davlat xizmatlari ko‘rsatilishi yuzasidan 100 dan ortiq monitoring o‘tkazgan. Xususan, o‘qish va xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha imtihon topshirish xarajatlarini qoplab berish bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatilishi o‘rganilganda xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha yuqori ball (daraja) olgan 309 nafar yoshga imtihon xarajatlari qoplab berilmagani aniqlanib, Yoshlar ishlari agentligiga imtihon xarajatlarini ma’muriy reglamentga muvofiq to‘liq qoplab berilishini ta’minlash yuzasidan taqdimnoma kiritilgan. Natijada 132 kishining 236 mln 850 ming so‘m xarajati qoplab berildi. Shuningdek, vakolatli organ tomonidan qolgan 177 nafar yoshning xarajatini qoplab berish choralari ko‘rilgan[4].

O‘rganishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 215[5]-moddasida ko‘rsatilgan davlat xizmatlarini ko‘rsatish chog‘ida arz qiluvchidan murojaatni qabul qilishni rad etish, murojaatlarni ko‘rib chiqish

[4] 300 дан ортиқ ёшга халқаро имтиҳонларни топшириш харажати вақтида қайтариб берилмади. https://kun.uz/kr/40501809 (кўрилган сана: 13.01.2025).

tartibi va muddatini buzish, qonunchilikda nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilish zamirida davlat tashkiloti mansabdori, davlat xizmatchisining g‘araz maqsadi, tamagirligi yotadi. To‘g‘ri, bu huquqbuzarliklar davlat xizmatchisining ish yuklamasi yuqoriligi, murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun belgilangan muddatning ozligi, yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmasligi tufayli ham sodir etiladi. Ushbu qilmishlar qasddan sodir etilganda asosiy motiv g‘araz bo‘lishini ko‘p kuzatish mumkin.

Davlat xizmatlari yagona reyestrida davlat uy-joy fondini xususiylashtirish (782), notarial harakatni amalga oshirish (354-386), tibbiyot muassasasi mansabdorlarining tug‘ilishni va o‘limni qayd etishi (230 va 436), litsenziyalash va ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni berish ham davlat xizmati sifatida qayd etilgan.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 158-moddasida (Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish qoidalarini buzish), 193^3-moddasida (Notarial harakatni amalga oshirishni qonunga xilof ravishda rad etish), 241^5-moddasida (Litsenziyalash to‘g‘risidagi qonunchilikni va ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish) hamda 230-moddaning (Fuqarolik holati aktlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish) uchinchi qismida ham davlat xizmatlari ko‘rsatilishi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun turli javobgarliklar belgilangan. Bundan tashqari Jinoyat kodeksining 192^5-moddasida litsenziyalash to‘g‘risidagi qonunchilikni va ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

2023-yilda adliya organlari tomonidan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 215^5-moddasiga asosan 5401 nafar, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil tomonidan 241^5-moddaga asosan 29 nafar, prokuratura organlari tomonidan 241^5-moddaga asosan 1 nafar, 158-moddaga asosan 2 nafar shaxsga nisbatan ma’muriy javobgarlik bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtirilgan hamda 193^3 va 230-moddalarga asosan ma’muriy javobgarlik bo‘yicha bayonnoma va Jinoyat kodeksining 192^5-moddasiga asosan jinoyat ishlari rasmiylashtirilmagan.



Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda davlat xizmatlari ko‘rsatilishi bilan bog‘liq huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 215^5-moddadan tashqari mazkur moddalarning ham amalda bo‘lishi huquqni qo‘llashda murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda bir xil amaliyotga erishish hamda korrupsiyaning oldini olish uchun kodeksga o‘zgartirish kiritish zaruriyati bor. Xususan, davlat xizmatlari ko‘rsatilishi bilan bog‘liq huquqbuzarlik uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 215^5-moddasi asosida javobgarlik qo‘llanayotganini inobatga olib, kodeksdan 158, 193^3, 241^5-moddalarni va 230-moddaning uchinchi qismini chiqarib tashlash hamda Jinoyat kodeksining 192^5-moddasini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu normativ-huquqiy hujjatlarni soddalashtirish va aniqlashtirish huquqbuzarliklar bo‘yicha adolatli qaror chiqarishga, huquqni qo‘llash amaliyotini birxillashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlat xizmatlari sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish sohaning korrupsiyadan xoli bo‘lishida muhim omil hisoblanadi. Buning uchun qonun hujjatlari takomillashtirilishi kerak.

Xudoyor MELIYEV,
mustaqil izlanuvchi